

**O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI  
TO'PLASH VA O'RGANISH VA NASHR  
QILISH MUAMMOLARI**  
Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman  
**MATERIALLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

**“O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO'PLASH VA O'RGANISH VA  
NASHR QILISH MUAMMOLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**«ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ИЗУЧЕНИЯ И ПУБЛИКАЦИИ  
УЗБЕКСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА»**

**МАТЕРИАЛЫ  
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“PROBLEMS OF COLLECTION, STUDY AND  
PUBLISHING OF UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE”**

**MATERIALS  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE**

**2023-yil 8-9-noyabr**

**BUXORO – 2023**

- 6.Жирмунский В.М.. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос.-М.: ГИХЛ, 1947. -С.294.
- 7.Oshiqnoma, Ilkitob, Urganch, «Xorazm», 2006, 187-bet.
- 8.Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. - М.: Наука, 1965, -С. 485.
- 9.O'zbek milliy ensiklopediyasi, 8-tom. -Т.: “O'zbek milliy ensiklopediyasi”, 2004, 184-185- betlar.
- 10.An-Nasaviy Shixobiddin Muhammad, Sulton Jaloliddin Manguberdi tafsiloti. -Т.: “O'zbekiston”, 2006, 30-40-betlar.
- 11.Oshiq Oydin-94, Dashxovuz, 1994,3-bet.
12. Бартольд В.В. Коркуд, соч. т.в-М.: 1968, С.41.
13. Короглы Х.Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. -М.: Наука, 1983, С.61.
14. Nazarov B. “Qo'rquq ota kitobi” haqida. // “Yoshlik”, 1988, №5, 40-bet.
15. Кононов А.Н. Родословная.туркмен.Сочинение Абу-л-Газы хана хивинского,- М.,-Л.: Изд. Ан, 1958.
- 16.Mirzaev T. Qahramonlik eposining yuzaga kelishi.// O'zbek folklorining epik janrlari, -Т.: Fan, 1981, 43-bet.
17. Короглы Х.Г. Шаман, полководец, озан (эволюция образи деде –Коркута). // Советская тюркология. –Баку, 1972, №2. –С.48-62.
- 18.Диваев А. Несколько слов о могиле Хорхут-ата-ЗВО РАО, Т.Х.СП.б. 1896. – С.193-194.
- 19.Магтымгулы. Ашгабат, «Туркменистан», 1977. –Б.234. (678)
- 20.Короглы Х.Г. Кўрсатилган мақола, 52-бет.

## ADABIY TOPISHMOQ

**Sharipova Laylo Frunzeyevna,  
Buxoro davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori v.b., f.f.d.**

**Salohiddinova Lobar,  
Boshang'ich ta'lif kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** topishmoq bolalar folkloriga daxldor janr bo'lib, yozma adabiyotga ham stilizatsiya qilindi. O'zbek bolalar adabiyotida adabiy topishmoqlar yuzaga keldi. She'riy adabiy topishmoqlar XX asrning ikkinchi yarmida taraqqiy topdi. Maqolada ushbu janr tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlar:** janr, topishmoq, bolalar folklori, stilizatsiya, chiston, janr sintezi, topishmoq ertak.

**Аннотация:** загадка — жанр, относящийся к детскому фольклору и стилизованный под письменную литературу. В узбекской детской литературе появились литературные загадки. Поэтические литературные загадки получили развитие во второй половине 20 века. Этот жанр был исследован в статье.

**Ключевые слова:** жанр, загадка, детский фольклор, стилизация, чистон, жанровый синтез, сказка-загадка.

**Abstract:** the riddle is a genre related to children's folklore and has been stylized into written literature. Literary riddles appeared in Uzbek children's literature. Poetic literary riddles developed in the second half of the 20th century. This genre was studied in the article.

**Key words:** genre, riddle, children's folklore, stylization, chiston, genre synthesis, riddle tale.

“Topishmoq” o'zbekcha so‘z bo‘lib, “top” fe’liga “-ish” harakat nomi, “-moq” so‘z yasovchisini qo‘sish orqali hosil qilingan. “Topishmoqlar” maqolasida folklorshunos olim T.Mirzaev “o'zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini metaforik topishmoqlar tashkil

etishini, bu janrda metaforalar bo‘lishi ilk bor Arastu “Poetika”sida aytilganini yozadi. Folklorning maxsus turiga daxldor janr sifatida topishmoq asrlar davomida yashab keladi. Ayni damda, xalq topishmoqlari hajman kichik janr sifatida yirik janrlar tarkibida uchraydi. Folklorshunos G’. Jalolovning “O‘zbek folklorida janrlararo munosabat” monografiyasida ertak va topishmoq munosabatlari tadqiq qilinar ekan, “topishmoq ertak” atamasi qo‘llanadi. Gap shundaki, topishmoq xalq ertaklari bag’rida uchraydi. Bunday ertaklar topishmoqli ertaklar deyiladi. Aksincha, topishmoq ertak ikki janr sintezi hosilasi bo‘lib, ertak boshdan-oyoq topishmoq sifatida yaratiladi. Demak, topishmoq deganda kichik hajmli janrnii tushunamiz, shu bilan birga bu janr yirik janrlar tarkibida uchrashi, bir janrning tabiatiga aylanishi yoki janr syujetini yuzaga keltirishi mumkin. Xalq topishmoqlari hali-hanuz turli jihatlariga ko‘ra o‘rganib kelinadi, tadqiq etiladi. Keyingi yillarda yaratilgan tadqiqot sifatida M.Jo‘raevaning dissertatsiyasini sanab o‘tish mumkin.

Sharq yozma adabiyotida xalq topishmoqlari ta’sirida chiston janri paydo bo‘ldi. O‘zbek adabiyotida bu janrning yuzaga kelishi Alisher Navoiy nomi bilan bog’liq. XX asrga kelib esa she’riyatimizda adabiy topishmoqlar yaratildi. Xalq topishmoqlari, chiston, adabiy topishmoqning o‘xhash va farqli jihatlari mavjudligi sabab uch xil atama qo‘llanishi tabiiy. Sirtdan qaraganda bir xilday ko‘ringan bu janrlar o‘xhashlikka ega bo‘lishi bilan birga tafovutli hamdir. Xalq topishmoqlari badiiy jihatdan mukammal, ular asrlar davomida sayqal topib kelganligi ma’lum. Folklorshunos Z.Husainova aytganidek “Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan bog’langan bo‘lib, hamma vaqt real zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgililar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go‘zal obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi”. Xalq topishmoqlari odatda qisqa, ammo yashiringan belgi-xususiyatlarni o‘ta aniq beradi va aksariyat hollarda kattalarga ham, bolalarga ham tushunarligi bilan qadrlidir:

Osh ichida tosh,  
Tosh ichida osh.

XX asrga kelib xalq topishmoqlaridan nafaqat xalq pedagogikasida, balki maktab ta’limida ham foydalana boshladilar. Shu boisdan bo‘lsa kerak, bolalar shoirlari topishmoq yoza boshladilar. Ular “chiston” demay, “topishmoq” atamasini qo‘lladilar. Bu o‘rinli, negaki bu yozma topishmoqlar vazni, ifoda usuli, tiliga ko‘ra xalq topishmoqlariga uyqash edi: bunday yozma topishmoqlarni xalq topishmoqlaridan farqlash uchun “adabiy topishmoqlar” deyish ma’qul. Zero, ularni chiston deb bo‘lmaydi. G’afur G’ulom topishmoq janrini stilizatsiya qilar ekan, lug’z-chistondan farqli o‘laroq og‘zaki topishmoqning asosiy janriy xususiyatlarini saqlab qola oldi. Adabiy topishmoqlar yaratishda shoirlar xalq topishmoqlariga tayanganlari aniq. G’afur G’ulom topishmoqlari chistondan tubdan farq qiladi. Ularning barmoq vaznida, sodda va ravon tilda yaratilgani, jumboq va echimdan kelib chiqadigan savol-javob qismi borligi xalq topishmoqlariga o‘xhash jihatidir. Bu hol G’afur G’ulomning “Buni toping, qizlarim”, “Men so‘ray, siz javob bering” she’riy topishmoqlarini topishmoq janri stilizatsiyasi deyishimizga imkon beradi. Folkloini, adabiyotshunoslilikni chuqur bilgan akademik shoirimizning yuqoridagi asarlari adabiy topishmoqdir. G’afur G’ulomning “Buni toping, qizlarim” nomli to‘rt bandli she’ri to‘rt narsani o‘zida yashirgan to‘rt topishmoqdan iborat. Unda sifatlash, tashbeh, tashxis qo‘llangan. Narsaning belgisi aniq, ravshan, barchaga tushunarli tarzda ifodalangan:

–Marjon-marjon yumaloq,  
Yaproqlari shapaloq.  
Qora, qizil, sariq, oq,  
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab boq,  
Sen ayt, Mamlakat qizim?  
–Bumi, dadavoy? Uzum.

G’afur G’ulomning yutug’i shundaki, topishmoqda undalma sifatida berilgan ismlar bolalarni erkalab, ardoqlab aytilgan, ayni damda topishmoq javobi

shu so‘zga ohangdoshdir. Bu taxlit she’rlar taniqli o‘zbek bolalar shoiri Anvar Obidjon ijodida ham talaygina. Uning “Bug’doy”, “Paxta”, “Turp”, “Karam”, “Sabzi”, “Kartoshka”, “Piyoz”, “Kungaboqar”, “Bodring”, “Qandlavlagi”, “Tarpuz”, “Yong’oq”, “Uzum”, “Maymanchak”, “Nok”, “Shaftoli”, “Gilos”, “Anor” singari she’rlari fikrimizni dalillaydi:

Men turaman bukib shox,  
Kamtarinman va yumshoq.  
Shundan hamma shirin der.  
Uzib olay birin der.  
Bolakaylor chug’irlab,  
Meni bog’dan o‘g’irlab,  
Qo‘yinlarga urishar  
So‘ng qichinib yurishar.

Shoirning bu she’rlari o‘zbek adabiy topishmoqchilagini boyitdiki, ularning sarlavhasiz holda “Alifbe”, “O‘qish kitobi” darsliklariga kiritilishi, rangli kitoblarga aylantirilishi davr zaruratidir. Anvar Obidjon adabiy topishmoqchili- gimiz an’analarini munosib davom ettirar ekan, bu borada novatorlikka erisha oldi. Adabiy topishmoqlar yosh avlodni o‘tkir, ziyrak, farosatli, dono bo‘lishini ta’minlaydi. Ulardagi tafakkurni shakllantiradi. Maktabgacha tarbiya hamda boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalar bunday topishmoqlarni aytib yuradilar va aqllarini peshlaydilar.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 464 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san“at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma“naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq sO‘zi, 2017.  
– 4 avgust.
9. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007. – B.80.
10. Matchonov S., Shojalilov A., G’ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi. Umumiylar maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Yangiyul: Yangiyul Poligraph Service, 2020. – B. 62.
11. YO‘ldoshev Q. Badiiy asar tahlili // Kitobda: O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov). – Toshkent:Turon-Iqbol, 2011. – B.352.
12. O‘zbek tilining izohli lug’ati. – Moskva: Rus tili, 1981. – B.517.
13. Pushkin A.S. Baliqchi va baliq haqida ertak. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2018. – B.7. Abdiqulov T. Bolalarpoemachiligining taraqqiyot tendensiyalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1976. – №3. – B.68-71

### **O‘ZBEK FOLKLORIDA MOMO KULTI**

**Narzullayeva Dilfuza Saitovna,  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи  
dotsenti (PhD)**

*Annotatsiya - Maqolada ayol ajdodlar ruhining homiyligi nazarda tutilgan momo kulti tushunchasi, unga ishonchning o‘zbek taqvimiylari va oilaviy-maishiy marosimlar folkloridagi badiiy talqini, momolar ruhining ayollarga, ularning faoliyatida, shug’ullanadigan kasb-korida hamisha yoru madadkor bo‘lishi, u bilan bog‘liq motiv va obrazlarning mifdan marosimga, marosimdan folkloriga ko‘chishi haqida fikr yuritilgan.*

## MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SO'ZI.....	3
O.X.Xamidov. O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO'PLASH VA O'RGANISHning NAZARIY ASOSLARI .....	4
<b>1–SEKTOR: O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINING GENEZISI, RIVOJLANISHI VA ILMUY-NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>5</b>
Дармоной Ўраева Саидахмедовна. БОЛАЛАРНИ АВАЙЛОВЧИ МАРОСИМЛАР ФОЛЬКЛОРИ ТИЗИМИ ВА ТАРКИБИ .....	5
Д.З.Ражабов. ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ДИСПОЗИЦИЯ ВА КОМПОЗИЦИЯНИ БЕЛГИЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ .....	8
Қаҳрамон Рахимбоевич Тўхсанов, Алижон Рўзиқулович Ҳамроев. "МАСНАВИЙ"ДАГИ ХАЛҚ ҲИКОЯЛАРИ .....	13
Sharipova Laylo Frunzeyevna. XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATIDA ALLA STILIZATSİYASI.....	16
Sabitova Tadjixon. TURKIY DOSTONLARNING JANR XUSUSIYATI .....	20
Mardonova Sarvinoz Oripovna. TILSHUNOSLIKDA SO'ZLARNING " LEKSIK - SEMANTIK", " MORFOLOGIK – SINTAKTIK " USULLAR BILAN SO'Z YASALISHI .....	23
Mardanov Rahim G'aybullo o'g'li. NAVOIY LIRIKASIDA TASAVVUFİY OBRAZLAR.....	29
Mamatqulova Mehrnoz. "ZUMRAD AND QIMMAT" MYRESS BRIGGS TYPE INDICATOR ANALIZE.....	32
Zumrad Masharipova. ZEBO MIRZO IJODIDA OBRAZLAR KO'LAMI.....	34
O'ranova Maftuna No'mon qizi. BOLALAR FOLKLORINING MAZMUNI TO'G'RISIDA .....	37
<b>2–SEKTOR: BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIMDA O'ZBEK BOLALAR FOLKLORI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI....</b>	<b>40</b>
To'xtasin Rajabov Ibodovich. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING ILMUY-METODIK ASOSLARI .....	40
Husenova Aziza Sharipovna, Rahmatova Gulasal Nasillo qizi. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ERTAK O'RGATISHNING MA'NAVIY- AMALIY AHAMIYATI .....	44
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NUMERATIV SO'ZLARNING ETNOLINGVISTIKASI .....	46
Жўраева Мунис Юнусовна. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ТОПИШМОҚЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК МОҲИЯТИ.....	49
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA AXLOQIY SIFATATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	53
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY IJODIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING FAZILATLI JIHATLARI.....	56
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI – JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI FOLKLOR NAMUNALARI ASOSIDA SHAKLLANTRISH.....	59
To'ymurodova Dilshoda Bobomurod qizi. MAKTABGACHA TA'LIMDA FOLKLOR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	62
<b>3–SEKTOR: O'ZBEK XALQ MILLIY O'YINLARI VA FOLKLORINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK JIHATLARI .....</b>	<b>65</b>
Xudayqulova Latifa Avazovna. MAROSIMLARDA MILLIY O'YINLARNING O'RNI .....	65
Safarova Nigora Oxunjonovna. O'ZBEK BOLALAR O'YINLARINING AXLOQIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI .....	67
Shamsiya Egamberdiyeva Mamajonovna. O'ZBEK ALLASI VA TURK NINNISI: UYG'UNLIK VA ALOHIDALILIK .....	70
Xalilova Ruxsora Raupovna. VIRTUAL MULOQOTDA XALQONA RUHNING IFODALANISHI ...	74
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna. "ALPOMISH" DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAlik EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI .....	76
Xakimova Maxsudaxon G'ofurjon qizi. ALPOMISH DOSTONI EPOSINING ASOSIY TENDENSIYALARI .....	79

Davronova Jasmina Sanjar qizi. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT O'QISHGA QIZIQTIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI .....	83
<b>4-SEKTOR: BOLALARDA NUTQIY KOMPETENSIYALYARNI RIVOJLANTIRISHDA FOLKLORNING O'RNI.....</b>	<b>86</b>
Холиков Ихтиёр Розикович. БОЛАЛАРДА НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ФОЛЬКЛОРНИНГ ЎРНИ .....	86
Тиллабаева Феруза Абдулазизовна. ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ.....	88
Navruzova Muyassar Gaynullaevna. ON LEXICAL CHARACTERISTICS OF EUPHEMISMS AS MEDICAL LINGUISTIC UNITS.....	92
Ozodova Madina Hamza qizi. O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA FOLKLORNING O'RNI ..	96
<b>5-SEKTOR: O'ZBEK VA QARDOSH XALQLAR BOLALAR FOLKLORINING SOLISHTIRMA TAHLILI .....</b>	<b>99</b>
Авезов Собит Сафарович. БУХОРО ФОЛЬКЛОРИ БОЛАЛАР ЎЙИНИ БАДИИЯТИ ВА КОМПОЗИЦИЯСИ .....	99
Джамила Темирова. ТИПЫ НЕАНАТОГИСТИЧЕСКИХ ИГР В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ДЕТСКОМ ИГРОВОМ ФОЛЬКЛОРЕНЕ .....	103
<b>6-SEKTOR: XALQ OG'ZAKI IJODINI TO'PLASH VA NASHR ETISH MASALALARI 107</b>	
Бекбергенова Абдан Утеповна. «ЕР ЗИЙЎАР» ДЭСТАНЫНДА ГИПЕРБОЛАЛАРДЫҢ ӨХМІЙЕТИ .....	107
Sabirova Nasiba Ergashevna. XORAZM DOSTONCHILIGI RIVOJIDA BAXSHICHILIK AN'ANALARINING O'RNI .....	110
Sharipova Laylo Frunzeyevna, Salohiddinova Lobar. ADABIY TOPISHMOQ.....	114
Narzullayeva Dilfuza Saitovna. O'ZBEK FOLKLORIDA MOMO KULTI .....	116
Qodirova Saodat Abduraximovna. "ZARBULMASAL" ASARIDAGI MAQOLLAR TIZIMI .....	120
Mahamadjonova Odina Xamidullo qizi. ANDIJON BOLALAR FOLKLORI VA TURK BOLALAR FOLKLORIDAGI O'XSHASHLIKLER.....	124
Djurakulova Gulnoza Shavkatovna. JANUBIY O'ZBEKİSTON DOSTONCHILIK MAK TABIDA QO'LLANILUVCHI O'XSHATİSHLAR .....	127
Sayfutdinova Dilbar Tojiddin qizi. RAQS SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI .....	130